

## O'ZBEKISTONDA OMMAVIY TURIZMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

FACULTY: TOURISM

GROUP: TOU-12U

SUBJECT: RESEARCH METHODOLOGY

STUDENT: MO'MINOVA BARNOXON NOZIM QIZI

SUPERVISOR: DSC.PROF. ODILOVA G.K.



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ommaviy turizmning barqarorlashuvida yuzaga keladigan afzalliklar va kamchiliklar ko'rib chiqilgan.

**Key Word:** ommaviy turizm, turizm, kamchiliklar, afzalliklar, qulayliklar, texnologiyalar, obidalar, tur paket.

Type of Research: Tavsifiy, tavsiyaviy, solishtirma.

### Introduction

Turizm – faol dam olish turidan biri hisoblanadi. Turizm faoliyati so'ngi yillarda yanada rivoj topayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Hozirda uning bir qancha yo'nalishlari, turlari mavjud bo'lib: sayyohlar o'zlariga mos maqsadli sayohatni yoki, guruh sayohatini tanlashlari mumkin. Shulardan biri ommaviy turizm hisoblanadi.

Ommaviy turizm bu - ko'p sonli odamlarning ixtisoslashgan joylarga uyushgn harakati hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ko'pchilik bo'lib mashhur sayyohlik maskanlarga tashrif buyurishdir. Bu sayohatning eng mashhur va arzon usuli hisoblanadi. Ko'pincha ta'tilning eng yuqori mavsumida amalga oshiriladi. Asosan ommaviy turizm sayyohlarga tur paket ko'rinishida taklif qilinadi. Unda siz boriladigan manzillarni, mehmonhona va barcha xizmatlarni umumiy ko'rinishida ko'ra olasiz.

Bu turdagi turizm faoliyati hozirgi kunda eng qulay va eng ommabop faoliyat hisoblanadi. Shu bilan birga har bir faoliyatning afzalliklari va kamchiliklari bo'lgani kabi bu turdagi faoliyatning ham avzaliklari va kamchiliklarini ko'rishimiz mumkin. Bu faoliyat turning o'ziga xos afzaliklari mavjud. Bunda, ommaviy turizm turidan foydalanigan mijozlar uchun taklif qilinadigan tur paketlar ancha qulay va hamyonbop narxlarda taklif qilinadi. Bu turdagi turizm faoliyatini mijozlar qulaylik uchun afzal ko'radilar.

### Problem Statement

Shu bilan bir qatorda bu turdagi faoliyat nafaqat bu turdagi turizm foliyatidan foydalanuvchi mijozlar uchun, balki bu faoliyatga bevosita va bilvosita a'loqador faoliyatlar uchun ham ko'plab foyda keltiradi. Misol tariqasida aytishimiz mumkunki,

ommaviy turizm o'z -o'zidan davlatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Va aynan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ham ommaviy turizm faoliyatiga katta e'tibor qaratadilar. Chunki, ommaviy turizm mahalliy va milliy iqtisodiyotda o'z-o'zidan ijobiy foyda ko'rsatkichlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ommaviy turizm rivojlanishi oqibatida yangi ish o'rinlariga ehtiyoj oshadi va mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari paydo qilinadi. Va davlatdagi ishsizlik ko'rsatkichi kamayishi uchun sabab bo'ladi.

### **Preliminary literature review**

Yurtimizda Ommaviy turizmni rivojlantirish, ayniqsa ziyorat turizmiga alohida e'tibor berish chora tadbirlari ko'rib chiqilgan va takliflar berilgan. Misol uchun Said Rahmonovning Birinchi Xalqaro ziyorat turizmi forumida: tarixiy va muqaddas qadamjolarga ziyorat hamda sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar tashrifida ko'rilishi kerak bo'ladigan chora tadbirlar aytib o'tilgan [1].

### **Discussion**

Bizga ma'lumki, ommaviy turizm ta'sirida madaniyatlararo hamjihatlik munosabatlari ular o'rtasidagi hurmat aloqalari yanada mustahkamlanadi. Bugungi kunga kelib davlatlar o'rtasidagi biznes va shu kabi faoliyat turlari yanada rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, ommaviy turizm davlatlararo reklama vositasi hisoblanib, tashrif buyurilgan davlatlar haqida yanada ko'p ma'lumot olib, uni boshqa xalqlarga tanitish uchun eng samarali faoliyat hisoblanadi.


Boshqa tomondan olib qaraydigan bo'lsak, har bir faoliyat turning afzalliklari bo'lgani kabi kamchiliklari ham mavjuddir. Ommaviy turizm ham o'z kamchiliklariga va ba'zi salbiy oqibatlariga ega. Ya'ni insonlar ko'p tashrif buyurishadigan joylarda chiqindilar ko'p bo'lishi tabiiy holat. Bunda ommaviy turizm atrof-muhitning ifloslanishiga sababchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Turistlarning aksariyati mas'uliyatli bo'lishlari mumkin, ammo chiqindi solish idishlari kam bo'lganligi yoki boshqa sababalarga ko'ra ayrim turistlar atrof-muhit tozaligiga e'tibor qaratmasliklari mumkin.

Shu bilan bir qatorda qadimiy obidalarga, va boshqa mashxur yodgorliklarga tashrif buyurish ko'rsatkichlari ko'p bo'lganligidan va boshqa tabiiy xodisalar tufayli ularda eskirish va inshootlarda kuzatiladigan zararlar ham yuzaga kelib turadi. Bunday holatda inshootlarni doimiy ravishda qayta tiklash ishlari olib borilishi talab etiladi. Bundan tashqari ommaviy turizm rivojlangani sari chet el davlatlari bilan hamkorlik munosabatlari ham o'sadi. Bunda chet el maxsulotlari bozorlarga kirib kelishi va bunda mamlakatning milliy maxsulotlariga bo'lgan talabning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda ommaviy turizmning rivojlanishi madaniy xalqning yashash tarziga va azaliy urf-odatlariga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Ya'ni madaniyatlar

almashinuvi asta sekinlik bilan madaniy urf-odatlarining yoqolib borishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda ham statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yilda turistlar soni yana keskin o'sib, qariyb 5,2 million nafar xorijiy sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurdi va ko'rsatkichlar 2017-yilga (2,7 million nafar) nisbatan 1,9 baravarga o'sdi. O'tgan yili turizm xizmatlari eksporti hajmi ham oshib, 1,6 mlrd dollarga yetgan (2017-yilda 531 million dollar bo'lgan) [2].



[3].

### Findings

Men ommaviy turizmning avzaliklarini va kamchiliklarini va ularning O'zbekistonga qanday ta'sir o'tkazishlarini o'rganish davomida turli ma'lumotlar bilan tanishdim. Shu bilan bir qatorda bu ma'lumotlarni umumlashtirish maqsadida insonlarning ommaviy turizmga bo'lgan munosabatlarini bilish maqsadida so'rovnoma o'tkazdim. Bu so'rovnomada 60% ayollar va 40% erkaklar ishtirok etishdi. Bunda ularga 3 ta savol bilan muroojat etildi. Quyida bu so'rovnoma natijalari bilan taishishingiz mumkin:

Siz Ommaviy turizm haqida tushunchaga egamisiz?	Ommaviy turizmning O'zbekistonda o'rni muhimmi?	Ommaviy turim barqarorlashuvida O'zbekistonda salbiy ta'sir-oqibatlar yuzaga keladimi?
Ha – 100%	Ha- 95 %	Ha – 70 %
Yo'q - 0%	Yo'q- 5 %	Yo'q – 30 %

So'rovnoma Toshkent shahrida o'tkazildi.

### Conclusion

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ommaviy turizm o'zining ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgani kabi, salbiy oqibatlariga ham egadir. Shu bilan bir qatorda ommaviy turizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurqorida keltirilgan afzalliklarni ko'rsatuvchi misollar bunga misol bo'la oladi. Ammo, shu bilan bir qatorda ommaviy turizm oqibatida yuzaga keladigan muammolarni nazorat qilish va zararli holatlar o'sish darajasini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarga olib keluvchi misollar kabi holatlar yuzaga kelmasligi uchun ularni oldi olinishi kerak. Bunda, holatlar o'rganilib chiqilishi va ularga optimal yechim izlanishi lozim. Ayniqsa, madaniy meroslarni asrash, urf-odatlar saqlanib qolinishiga e'tiborli bo'lish, atrof-muhitni asrab avaylanishiga e'tiborli bo'lish muhim hisoblanadi. Va har bir shaxs shu va shu kabi resurslarni asrashi uchun harakat qilinishi muhim hisoblanadi.

### References

- [1] <https://cyberleninka.ru/article/n/ziyosat-turizmi-tarixi-va-uning-turizm-sohasida-tutgan-o-rni>
- [2] <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>
- [3] <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>